

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligi
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakelteti
Pedagogika psixologiya ta'lim yo'nalishi
II bosqich talabasi Zulfuqorova Maftunaning
“Yosh va pedagogik psixologiya” fanidan

REFERAT

Andijon – 2016 yil

**MAVZU: MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA RUXIY
FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
MUAMMOLARI**

REJA:

1. Maktabgacha yosh davrining psixik taraqqiyoti.
2. Maktabgacha yosh dari bolalarining bilish jarayonlari
3. Bola psixik rivojlanish davrida qiziqish
4. Adabiyotlar ro'yxati

1. Maktabgacha yosh davrining psixik taraqqiyoti.

Pisixik rivojlanishdan biologik va ijtimoiy omillar bolani psixik rivojlanishida shaxs, inson muammosi psixologiyaning markazida turgan eng qiyin muammolardan bo'lib hisoblanadi. Ongli inson tarbiyasini psixik rivojlantirish jarayon qonuniyatlarni bilmasdan tarbiyalash aqlga sig'maydi. Inson shaxsi qaysi jarayonga kattalar tomonidan maqsadga yo'naltiradi. Ushbu jarayonni boshqarishdagi imkoniyatlar qanday? Bu savollarga javob izlashda odam nima bilan tug'iladi, hayot jarayoni va faoliyatida nimalarga erishadi. Ta'lim-tarbiya tizimini oydinlashtirish orqali amalga oshirish zarur. Dialetik, materialistik, biologik va ijtimoiy munosabatlarni o'zaro insondagi psixologik ilmda dialetik, materialistik o'rganishga ruxsat beriladi. Bunda inson «barcha jamiyat munosabatlarida mavjud».

Inson biologik mavjudot, shuning uchun uning psixik rivojlanishiga ta'sir qilishda ikkita ajoyib omil ko'rsatiladi

1. Biologik –tabiat.
2. Jamiyat tomonidan tashkillashtirilgan ta'lim va tarbiya.

Ushbu omillarning o'zaro munosabati turli nazariyalar bilan ko'rib chiqilgan.

Biologizator insondagi tabiatan berilgan hayotiy jarayonlarni hal qiluvchi omil sifatida uning rivojlanishini belgilab berishini tan olishadi. Bu yo'nalishda odam tabiatdagi biologik ahamiyatini baholash, turli nazariyalarga asoslanib ochib kelinadi. Tashqi biologik ta'sir omillari sotsialogizatorlar nuqtai-nazarida ahamiyatsizdir.

Mazkur ikkita yondashuv metafizikadir. Ular faqat bitta omilni tan olishib uni o'zaro munosabat va bog'liqlikni ko'ra olmagan. Psixologik yo'l psixika rivojlanishidagi dialetik muammolarni hal qilishda insonni biologik mavjudot sifatida qarab, ikki omilning yaxlit faoliyati psixikani tushunishdagi materialistik jihatdan miyaning ob'ektiv aksi sub'ektivda deb qaralgan. Muammoni yechishda dialetik materialistik yondashuv inson tabiiy ma'lumotlariga psixik rivojlanishni biologik-anatomik xususiyatlarining bog'liqligini asosiy psixik faoliyati sifatida bosh miyaning oliy nerv faoliyati vujudga keladi va bolani o'rab turgan tashqi

ta'sirlar hayot tarzi jamiyat tarixi psixik hayotni tarkibiga kirib inson shaxsini shakllantiradi.

Endi ushbu psixikani rivojlantiruvchi, harakatlantiruvchi ikki asosiy omillarni qismlarga bo'lib ko'rib chiqamiz.

Biologik omilga irsiyat va go'dak tug'ilishiga mansub bo'lib, bolaga irsiy nima o'tadi, avvalo insonning o'ziga xos nerv tuzilishining shakli, bosh miya sezuvchi organlari, barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan jismoniy belgilar, qo'l, bilish belgilari va tashqi olam bilan munosabatga kirishadigan organ sifatida insonning asosiy belgilar nasldan-naslga o'tadi. Bolalarga yaxlit nerv foliyatining o'ziga xos psixologik insinktiv xususiyatlari o'tishi mumkin. Nerv tizimining psixofiziologik va anatomik tug'ma xususiyatlari sezgi organlari bosh miyani qobiliyat deb atash qabul qilingan. Bo'larning asosida insonning xususiyatlari va qobiliyatlari va shu jumladan, intellektual rivojlanishi shakllanadi. Irsiy axborotlarni tashuvchi genlar hisoblanib, ular insonda 40 dan 80 mingacha bo'lishi mumkin. Zamonaviy malumotlarga qaraganda genlar turg'un va tuzilishi o'zgaruvchan ular mutadillashish xususiyatiga ega bo'lib, tashqi ta'sirlarning ichki sabablarga ta'siri ostida o'zgaradi. Genlarda kechadigan mutadillash orqali insonda rivojlanish organizmdagi ayirim organlarni tushuntirish mumkin: ko'tarilish va pasayish ko'p palastiklar kichik bo'limlar burun, og'iz, damtopizm, ayrim kasalliklarga moyillik odamlarning tanasidagi farqlarining yuzaga kelishi sabab bo'ladi.

Irsiyat bilan biologik omillarga tug'malik ham kiradi. Bola tug'ilganda unda kechadigan holatlarning barchasi ham irsiyat bo'lavermaydi. Uning alohida tug'ma belgilari hayotdagi tashqi ta'sir sharoitlari bilan belgilanadi. (Onaning sog'lig'i dorilarning ta'siri, chekish, alkogol va boshqalar). Demak, biologik omil muhim ahamiyatga ega bo'lib, u insonning o'ziga xos tuzilishi va turli organlarning faoliyati va tuzilishida shaxs bo'lish imkoniyatini belgilaydi. Biologik xususiyatlar insonning tabiiy asosini tashkil etadi. Uning asl mohiyatida ijtimoiy sifatlarning ahamiyati yotadi.

Inson shaxs sifatida ijtimoiy omilarning ta'siri ostida shakllanadi. Psixik rivojlanish omili sifatida tushunish qiyin. U rivojlanishda o'zidan tabiiy va psixik kabi tabiat omillarini ya'ni fizik olam, ma'lum bir ta'sir o'tkazadi; havo, quyosh, suv, elektromagnit maydoni, yerning tortilishi, o'suvchanlik, iqlimining o'ziga xosligi, tabiat omillar muhim rivojlanishini belgilamaydi, balki uning ta'siri bevosita nomoyon bo'ladi. Ayniqsa bunga ijtimoiy olimlar orqali, katta odamlarning mehnat faoliyati orqali yuzaga keladi.

Bolani psixik rivojlantirishdagi asosiy omil insonlar bilan hayot kechirishida aks etadi. Boshqa odamlar bilan muloqatsiz bola psixikasi rivojlanmaydi. Tarixdan bunday vaziyatlar yani kichik bolalarni yirtqich hayvonlarning tarbiyalashi bir necha ishlarda o'z ichiga olganligi bizga ma'lumdir. Odamlar tomonidan tug'ilib, ammo xayvonlar tomonidan tarbiyalangan bolalar odamlarga qaytganda undagi muhim insoniyat sifatлари yo'qolib ketgan edi. Yani ularda nutq, aqliy qobiliyat xis, o'zini anglash rivojlanganligi tadqiqotlarda aniqlangan.

Bola insonlar xulqi tajribasini, mehnat qurollaridan foydalanish tajribani va hayotni qunt egallashni faqat odamlar bilan muloqat qilganda o'rganadi-yu; katta avlod kichiklarga o'zlarining ilmiy asarlarida jo qilgan axloqiy normalarda va inson xulqi qoidalarida, mehnat qurollarida va belgilar tizimida, asrlar davomida yig'ilgan boyliklarni berishadi. Insonlar yaratgan tarixiy iqtidorlik xususiyati va vazifalarini shakllanishi bilan o'tadi.

Bolani rivojlanishi nafaqat oila davrasida (oilal, tengdosh, qarindoshlari, qo'shnilar) asosan keng ma'noda ijtimoiy muhit ta'siri, turli xil ommaviy vositalar qurshovida bolani o'rab turgan hayotiy holatlarda amalga oshiriladi. Bolaning faolligini tashkil etishni asosiy shakllari ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Jamoa ta'siri tarbiyasi bolalarning psixik rivojlanishini, uning bilim olishini, qobiliyatlarini "kovlab, izlab, topish" topish turlari (usullari)ni insonlarga xos bo'lgan munosabatni aniqlaydi

Bolani psixik rivojlantirishdagi harakatlanuvchi kuchlar rivojlanishning ikki diometrlil qarama-qarshi konsepsiyali ya'ni dialektik-materialistik va metafiziklarga ajratilgan.

Birinchi konsepsiyada harakat o'z harakati soyasida uning harakatlantiruvchi kuchi uning manbasi sifatida yuzaga keladi.

Ikkinchi konsepsiyada asosiy diqqat aynan "o'z" harakati manbasini anglashga intilishdir.

Birinchi konsepsiya o'lik, rangsiz, quruq narsa sifatida namoyon bo'lishi bo'lsa, ikkinchisi hayotiy, jami borliqni o'z harakatining kalitini beradi.

Dialetik-materialistik konsepsiya fan rivojlanishi nafaqat miqdoriy o'zgarishi bilan balki, shakl va xususiyatlarni sifatli paydo bo'lishida deb tushuniladi. Bolaning psixik rivojlanish mohiyatini asta-sekin miqdoriy yig'ilmalarda, sakrash yo'li bilan sifatli o'zlashtirishadi. Masalan, alohida tovushlarni jamlagan bola ma'lum paytda so'z talaffuz qilishni boshlaydi. Keyingi davrda rivojlanishning yangi fazilati so'zlarni gapga qo'shish xislati paydo bo'ladi. Xuddi miqdoriy fazilatli jarayon o'zgarishi bola shakllanayotgan psixikani turli zonalarida fikrlash faoliyatida, sezgida, atrof-muhitga harakati va odatlarida ongida kuzatish mumkin.

Rivojlanishning metafizik konsensiyasi uning manbasini aniqlamaydi, rivojlanishini ixtiyoriy hisoblaydi, ta'sirsiz jarayonlar sababini tushuntirib bo'lmaydi, shuning uchun ham shu jarayonni boshqarish imkoniyatlari haqidagi masala avtomatik ravishda olib ta'minlanadi.

Shu konsepsiya bo'yicha bola bu kichik – katta odamlardir. Psixik rivojlanishni –faqat bo'lgan boshlang'ich xususiyatlarni kengaytirilishidir. Deolektik-materialistik nazariya rivojlanishini qarama – qarshiliklar kurashish sifatida yangi paydo bo'layotgan shakllar, ya'ni paydo bo'layotgan rivojlanish bilan kurashish kabi qarashadi.

Bu nazariya rivojlanish manbasini xayot jarayonini o'zida ko'rishadi. Bu jarayonida qarama –qarshiliklar bo'ladi, shu yerda yengishadi, olib tashlanadi. Bolaning psixologiyasida yangilik qarama–qarshiligi ta'lim va tarbiya davrida paydo bo'ladi va yengib o'tiladi.

Bolaning har bir o'smirlik davridagi rivojlanishi misolida ko'rib chiqamiz. Bola o'ziga yaqin bo'lgan odamlar bilan muloqatda bo'ladi. Eng avvalo onasi bilan imo-ishoralar qo'l harakatlari ba'zi so'zlar orqali (ularning manosi doimo

tushunarli emas), ammo ohangni juda ham tez va nozik qabul qilinadi. Bolaning yoshi o'ta boshlagan sari chuqurroq va kengroq muloqatda bo'lishga intiladi. Maktabdagi o'qish jarayoniga moslashishiga yordam beradi.

Yangi shakldagi muloqat shakllari va eski shakllar qarama-qarshiligi natijasida paydo bo'lgan talablar bilan ularni qondirish o'rtasidagi munosabat rivojlanishini harakatlanuvchi kuchi hisoblanadi: yengib o'tish, shu qarama-qarshiliklarni olib tashlash, muloqat, fazilatlarini inson faolligining yangi shakli nutqni yuzaga keltiradi.

Kichik maktab yoshdagi davrda psixik rivojlanishning harakatlanturuvchi kuchi yangi talablar bilan, qaysiki o'qituvchi o'quvchilar oldiga talab qo'shilish va ularni eski usullar bilan qondirilishi, bolaning mavjud rivojlanish darajasi, uning bilimi, ko'nikmasi, malakasi qarama-qarshiligi hisoblanadi.

Yangi ehtiyojlarni qondirish uchun o'qituvchilarni talablarini bajarish uchun o'quvchi murakkabroq usullarni va faoliyatlarni egallash kerak. Bolaning yashirin ijoyuiy imkoniyatlari uning psixik rivojlanishida harakatlanturuvchi kuchi sifatida kelib chiqadi.

Bola tugilganidan 1 yoshgacha bo'lgan davrda jismoniy va psixologik jihatdan juda tez usadi. Bu davrda bola ko'p jihatdan ongsiz bo'lib kattalarning doimiy va to'g'ri parvarishiga muxtoj bo'ladi. Bolaning kelgusida soglom bo'lishi va psixik jihatdan normal usishi uning shu davrda to'g'ri parvarish kilinishiga boglik.

Bu yoshda bolaning nerv sistemasi ham tez usib boradi - miyaning ogirligi 350 gr-dan 900 gr boradi, (1 yoshdan 3 yoshgacha 200 g ortadi) boshni tik tutishi, narsalarni paypaslab ushlab, turishga urinish, emaklash, faoliyatlari vujudga keladi. Bir kator analizatorlari paydo bo'lib, normal ishlay boshlaydi. Kurish va eshitish analizatorlari bir muncha murakkab yul bilan rivojlana boshlaydi.

Bola xayotining 2-xaftasida sekin xarakat kilayotan narsalarni paykaydi, 3 oylikda yarkirok narsalarga tikilib karaydi, 3-4 oylik bola onasini taniydi- tafakkur elementlari paydo bulyapti - onasini boshkalarga takkoslayapti. 6-7 oylik bola oti aytilgan narsani kursatadi, xarakat xotirasi paydo bulyapti. Bola bilan muloyim

gaplashib tursak, unda faollik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi- «jonlanish kompleksi».Bolaning 1-yigisiyok nutq apparatlarini rivojlantira boshlaydi.2-3 oylikda g, k, a tovushlarini chikaradi, 8 oyligida kattalarning gapini tushuna boshlaydi, kattalarga taklid kilib nutqi usib boradi. Shu tarika bolada iroda, odat, xissiyot, temperament belgilari ham tez usib, rivojlanib boradi.Erta bolalik (1-3 yosh)davrida bola yura boshlaydi, tevarak-atrofdagi narsalarni bilishdagi daslabki kadamini kuyadi. Nutqi yordamida atrofdagilar bilan munosabatida bo‘la boshlaydi. Bu esa undagi psixik jarayonlarning rivojlanishiga imkon beradi.Bu davrda miya pusti xujayralarining tobora ko‘p shoxsimon modda bilan koplanishi ruy beradi. Mielin pardasining xosil bo‘lishi kuchayadi, qo‘zgalishini o‘tkazish ancha tez va aniq bo‘lib qoladi.

Bu davrda bolaning barcha analizatorlari uygun xolda ishlay boshlaydi.bu esa sezgi va idrokning o‘shishiga olib keladi, diqqati beqaror bo‘ladi. 1 ta o‘yinchoqni o‘ynab, darrov 2-chisiga o‘tadi, lekin bu davrning oxirida tartibsiz xarakatlar, bexuda yugurish o‘rniga bir mashg‘ulot bilan ancha mashgul bo‘ladigan bo‘ladi, 3 yoshga yetganda o‘z-o‘ziga xizmat qilish va kattalarning yumushini bajarishi tufayli ixtiyoriy diqqat o‘sib boradi.

Asosan obrazli xotira ustun bo‘ladi kattalar xarakatiga taklid kilishi xolatida xarakat xotirasi ham kurinadi.

Nutqning usishi 2 davrga bulinadi 1-davr - 1 yoshdan 1,5 yoshgacha-atrofdagilarni nutqini tushunishi - passiv nutqning rivojlanishi davri; 2-davr - 1,5-3 yoshda. Aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taklid kilib, xar bir yangi so‘zni uzlashtirib oladi.

Bolada nutq paydo bulgach, fikrlash ham yaxshilanadi. Bu davrda tafakkur yakkol obrazli bo‘lib, o‘yinchoklarni xar-xil kilib kayta kurishida kurinadi.Xayol jarayoni ham usib boradi- tulkinlanib turgan pardani dengizga, bulutlarni gulga uxshatadi.

1. Bog‘cha yoshi davrining eng muxim xususiyati - uning mustakil faoliyati bilan shugullanishi, faoliyat doirasi kengayishi, maxsus pedagoglar

tomonidan muayyan dastur asosida tarbiya beriladi. Shaxs tarbiyasida bog'cha davri muxim ahamiyatga ega.

Bu davrda bosh miya yarim sharlari pustidagi nerv xujayralari tobora murakkablashib boradi, shoxchalar usib chikadi, va muvakkat nerv boglanishlari xosil bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Bolaning psixik rivojlanishida ularda paydo bo'ladigan ehtiyojlar va kizikishlar katta ahamiyatga ega. Ular bolani u yoki bu xarakata undovchi omil xisoblanadi, bola kizikkan narsasi bilan uzok vakt shugullana oladi. Bu esa uning diqqati, irodasini rivojlantirishga yordam beradi. Bog'chada to'g'ri yulga kuyilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda kizikishini tarkib toptiradi. Bog'cha xayotining ko'p kirrali va sermazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga va chukurlashishiga yordam beradi, bu esa uz navbatida idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, kabi jarayonlarni rivojlantiradi. Bog'chadagi tartib intizom va ta'limiy mashulotlar yuksak ijtimoiy, intellektual, axlokiy va gigienik ehtiyojlarning, yuzaga oshishiga sharoit yaratadi.

Emotsional-irodaviy xislatlarning shakllanishida o'yin, mehnat faoliyatlarining, ta'limiy mashg'ulotlarning ta'siri katta, Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yinda bemor singari yiglaydi, vrach sifatida unga raxmi keladi, bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi gavdalanadi. Bolaning psixik rivojlanish muammosi zamonaviy psixologiyaning diqqat markazida turadi. Psixologlar fikricha, bolaning psixik xususiyatlarini shakllanishini ijtimoiy omil belgilab beradi deb P.Ya. Galperin, D.K.Elkonin, V.V.Davidov, A.V.Zankov, N.A.Menchenskaya va boshqa psixologlar taklif qilishgan. Demak bolalarda orientir faoliyat va bola psixikasining rivojlanishidagi har bir bosqichdagi faoliyat ko'rinishlarini shakllanishiga asosiy diqqat qaratilgan. D.K.Elkonin va V.V.Davidov" ta'lim o'zining bosh rolini aqliy rivojlanishda bolaning bilimlarini o'zlashtirish orqali hosil qiladi", deb ta'kidlashgan. Shuning uchun ular bolalarda umumlashgan usullar va anglash usullarini shakllantirib, ular orqali bola o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi, deb hisoblashgan. A.V.Zankov rivojlangan ta'limga muvaffaqiyatli sharoitlarini mehnatning yuqori

darajasi materialini tez tempda o'tish bolaga ta'lim jarayonini anglashiga ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlagan. A.V.Zaporojets, V.V.Davidov, D.K.Elkoninlarning o'tkazgan tadqiqotlarida maktabgacha va kichik maktab o'quvchilarining imkoniyatlari keng ochib berilgan. Bu maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim dasturi va dastur tartibi psixologik kriteriyalari orqali boyitilib, tarbiyaning ta'limiy ishida maktabning boshlang'ich sinflarida yuqori talablarni qo'yilishiga olib keldi. Ma'lumki, bolaning akl idroki, fe'l atvori, vokelikka munosabati, psixik va jismoniy usish xususiyatlari, uni tarakkiysi bilan uzgarib turadi. Bu uzgarish uning faoliyati va xayot kechirishidagina emas, balki yoshiga ham boglikdir. M: 1 yoshli bola bilan 3 yoshli bola, 7 yoshli bilan 15 yoshli bola orasidagi fark yakkol kuzga tashlanadi. Bu fark bolani jismoniy xususiyatlari bilan emas, balki psixologik xususiyatlari bilan ham boglikdir. Usib, ulgayish bolaning jismoniy tarakkiyoti bilan boglik bulsa, sifat uzgarishlari, bolaning psixik tarakkiyoti bilan boglikdir. Bolada yuz beradigan sifat uzgarishlari birdaniga sodir bulmay, asta-sekin yuzaga keladi. Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda ularning tarakkiyotida yuz beradigan sifat uzgarishlari, ya'ni ularning psixik tarakkiyoti jaxatidan yangi boskichga kutarilishi asos kilib olinadi. Bolalarni turli yosh davrlariga ajratishda turlicha fikrlar zamonlardan beri fanga ma'lumdir. Ba'zi bir olimlar bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda fakatgina jismoniy usishni asos kilib olib uni:

1. Chaqaloqlik davri.
2. Balogotga erishi davri.
3. Balogotga erishishdan keyingi davr deb ajratgan bo'lsalar, ba'zi birlar esa.
 1. Emish davri.
 2. Emmaklash davri.
 3. Ikki oyoqlab yurish davri deb, ya'ni ba'zi olimlar (pedagog Blomskiy)
 1. Tishsiz bolalik.
 2. Sut tishi davri.
 3. Doimiy tish davri.
 4. Doimiy tishning tushish davri. (karilik) deb ajratganlar. Bunday bolalikni davrlarga ajratishda fakat ularni fiziologik va biologik belgilarigina suyanib,

psixik xususiyatlar xisobga olingmagan. Bu masala Chet el pedagogikasi va psixologiyasida tugri xal kilindi va bolalikni bolaning fiziologik va psixik xususiyatlarni xisobga olgan xolda kuyidagi davrlarga ajratiladi.

1. Gudaklik davri (murgak chakaloklik davri 0 yoshdan 1 yoshgacha)
2. Balogatgacha yoshdagi (yasli) davri (1-3 yosh)
3. Bog'cha yoshdagi bolalik davri (3-7 yosh)
4. Kichik maktb yoshdagi bolalik davri (7-12 yosh)
5. Usmirlik yoki urta maktab yoshidagi davr (12 yoshdan 15 yoshgacha)
6. Usmirlik yoki katta maktab yoshidagi davr (15 yoshdan 17 yoshgacha)

Bu davrlarni bir-biridan kat'iyan bir yosh bilan chegaralab kuyish mumkin emas. bola uzining usishida shu davrlarni kechiradi, ammo bu davrlar bir-biriga tabiiy boglanib boradi va oldingisi keyingisiga zamin xozirlaydi... Xar bir davrda bola ayrim ruxiy tomonlarigina emas balki uning umumiy siymosi, sifati-angori ham boshkachii kurina boshlaydi va ularni yosh belgilariga karab ta'lim-tarbiya muassasalariga kabul kilinadi. Xozirgi davrda bolalalikni davrlarga ajratishda psixolog D.B.Elnoningning xizmati kattadir. U bolalikni psixik tarakkiyot va bola faoliyatiga asoslanib kuyidagi davrlarga ajratadi: («K probleme pereodizatsii psixicheskogo razvitiya v detskom voz-te», «jurnal», «V.psix» 1971 № 4.)

I gurux bevosita xissiy aloka kilish (gudaklik)

II gurux predmetlarni kul bilan xarakatga keltirish faoliyati (yasli)

I gurux roli faoliyati (maktabgacha tarbiya)

II gurux o'qish faoliyati (kichik maktbgacha davr)

I gurux uzaro-samimiy (sirdosh) aloka bo'lish (usmirlik):

II gurux ukuv-professional (biror ishni kasb kilib olish faoliyat katta maktab davriga tug keladi).

Bog'chaga tarbiya yoshi (yasli) tarbiyaga kelib, bolaning psixik jixatdan tarakkiyoti tez suratlar bilan usa boshlaydi. Yasli yoshidagi bola tevarak atrofdagi dunyoni bilish ishtiyokini kondirish uchun benixoya katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Birinchidan (sezgi organlarining) takomillashuvi ularning o'zaro uygun

ishlashi shunga olib keladiki, gudak tevarak-atrofdagi dunyo xakida tarkok taassurot olgan bo'lsa, endi bu taassurotlar narsalarning butun obrazlariga idrokka aylanadi. Ikkinchidan bolaning xarakatlari yanada usishiga karab uning bilish imkoniyatlari kengayadi. Yasli yoshidagi bola fakat yurib emaklabgina kolmasdan yuguradi narvonga tirmalashib chikadi o'yinchoklarga kul uzatib oladi, mustakil ravishda ovkat yeydi, yechinishga kattalarning oddiy yumishlarini ado etishga o'rganadi, buyurilgan narsani olib keladi. bola stol tortmasidan nima borligini kizikib ochib kuradi, kalam, siyox, mix, tosh, chup va boshka narsalarni kuliga olib ogziga soladi. Hammasini «tekshirib» tevarak-atrofdagi baryaa yangiliklarni bilib oladi. Shu ish jarayonida bolaning idroki uygunlashib tajribasi ortadi. Ikki yoshga kadam kuyganida bolaning idrokida bir kadar differensiallash namoyon bo'ladi. Bola suratda tasvirlangan it, ayik, koplanni taniydi.

Bola «katta » va «kichik» so'zlar bilan atashni bilmasligiga karamay bu tushunchalar bir-biridan fark kiladi. Yasli bolaning idrokida muayyan masadni kuzlash sezilmaydi. Bola tevarak-atrofdagi narsalarni bilishda ko'pincha chalgib ketadi. Tashki dunyo bolani maftun etadi, xar gal unga xayoliy yangi tuxfalar tortik kilinadi. Yasli yoshi davrida bolaning dikkati ham tarakkiy etib boradi. Bolaning dikkati uziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bolaning dikkatida tajribaning cheklanganligi asosiy muxim belgini ajrata olmaslik uta ta'sirchanlik va xissiy uzgaruvchanlik yakkol kurinadi. Bu yasli davriga xos xususiyatlardir. Yasli yoshidagi bola uchun ixtiyorsiz dikkat xarakat .Bu dikkat asosan tavarak atrofdagi dunyo obektlarini kuchiga boglikdir. Yangi rang –barang favkulotda narsalarning hammasi dikkatni jalb etadi. Bola turli xil yaltirok ,ovoz chikadigan xarakatdagi narsalarga dikkatini jalb kiladi. Yasli yoshidagi bola dikkatni nixoyatda bekarok bo'lishiga xarakterli narsalar bilan yuzani topishadi. O'yin bilan shugullanayotgan bola 12-minut ichida 8marta o'yinchoklarni o'zgartirgan. Demak bola xar bir obekt(o'yinchok) ustida 2 minutdan uz dikkatini tuplay olgan xolos.

Dikkatning bunday bekarorligi fizologik nuktai nazardan kuyidagicha tushuntiriladi. Yasli yoshidagi bola miyasidagi tormozlanishi jarayonlarining kuchsizligi bilan ajralib turadi. Xuddi shuning uchun ham bolaning osonginat bir

narsadan ikkisiga chalgitadi. Narsalar bolaga juda kizik tuyulganda ham uning dikkati chalgib turadi. Psixologik N.M Mengiskayaning xikoya kilishiga kura 1 yoshu 8 oylik Sasha ismlik bola ekan

va u bolalar xakida ertakningzur kizikish bilan tinglaydi. Buri kelib eshikni takkilatganni xikoya kilinayotganda Sasha burining kanday takkilatganini kursatmokchi bo'lib devorga tak-tak uradi, lekin takkillashiga shu kadar maxliyo bo'lib ketadiki, ertakni tamomila unutib kuyadi. Yasli yoshdagi bolaga dikatning bir necha ob'ektga takomillay bilmaslik xos xususiyatdir. M: 3 yosh bolaga bir necha kichkina kaptoklarni olib kelishni buyurilsa, bola kuliga baravariga bir necha kaptokni oladi. Lekin yetib kelguncha fakat bitta kaptok koladi. Bola uz dikkatini bir vakitning uzida kulidagi kaptoklarga oyogining ostida yurishga taksimlay olmasdan kaptoklarni tushurib keladi. bolaning yoshi usib borgan sari uning dikkati barkarorrok bo'lib koladi. Yasli yoshidagi bolaning xotirasi gudaklarniki singari ixtiyorsiz xotiradir , yani bola narsalarni ataylab ongli ravishda esida saklab kolmaydi va tushura olmaydi. Lekin yasli yoshdagi bolaning xotirasida ancha siljish seziladi. Bu eng avvalo esga tushurish va tanish prosesiga ta'luklidir. Bola ko'p narsa esda saklab koladi va uni aniklab oladi, 2 yoshga kadam kuygandayok bola ilgari ko'rgan narsalarni suratdan taniy oladi. M: bola ota –onasini, aka- ukalarini va yakinlarinisuratida taniydi. Ko'pincha otini ham aytib beradi. N.M.Mencheniskayaning yozishiga 1 yoshu 7 oylik ugili darvozasini tanib olgan. Onasi darvozasiga kirmay utib ketayotganida, bola «xovliga kiramiz» deb xarxasha kilgan.

Bosh miya pustining yanada tarakiy kilishi , nerv tolalarining mielik pardasi bilan tez koplanish jarayoni latent davrini uzaytiradi. Bola bir yoshdan oshganda latent davri 9 xaftagacha 2 yoshdan oshganda bir necha oyga yetadi. Latent davrining uzayishi bola xotirasini yanada mustaxkamlaydi. Yasli yoshida bolaning xotirasi xali takomillashmagan bo'ladi. Uning tajribasi kamligi tevarak atrofdagi vokea va xodisalarga yetarlicha tushunib bir – biriga boglay olmasligi sababli bolaning xotirasi uzuk-yuluk sistemasiz bo'ladi. Yasli yoshi davrida bolada emotsional xotira kuchli namoyon bo'ladi. Bola xissiyoti juda eguluvchan bo'ladi. Unda kuchli

kechinma va juda yorquin obraz tugdirgan narsa uzok vakitgacha esida koladi. M: Bolaning tugilgan kuni nishonlansa , yaslida utkaziladigan bayram ertaklari uning esida uzok vakt saklanib koladi, tez-tez esiga tushurib turadi. Bola shu tarika taassurotdga beriluvchan bo'lganidan ko'pincha uz xotiralarida eshitgan vokealarini ,ko'rgan vokealariga almashtirib yuboradilar.

M: 2 yoshu 6 oylik bola paradga borib, unda ko'p odamlarni va bayroklarni kurdim , deb xikoya kiladi. Xakiyatda esa u bayram kuni uyda kolgan nomoish xakidagi xikoyani ota-onasidan eshitgan . Bolalar «yolgonchiligini» yuzaga chikishiga tarbiyachi e'tibor berishi bolaning xotirasini oydinlashtirishi lozim. Yasli yoshida bolaning kokret obrazli xotirasi ancha usgan bo'ladi.

Yasli yoshi davrida bolaning xarakat xotirasi ham ancha tokomillashadi. Xarakat xotirasining usishi yangi xarakatlarni , xarakat kunikmalarini egallashga yordam beradi. Bola xarakat xotirasi tufayli bemalol yuradigan , sakraydigan bo'ladi. Bola kattalarning imo- ishorasini o'rganib oladi. Opasiga uxshab xat yozmokchi bo'ladi, onasiga uxshab hamir korigisi keladi, otasiga uxshab bolga urib mix kokish xarakatlarini kiladi. Bolaning bu xarakatlariga kuz-kulok bo'lib turish kerak. Bola xarakat xotirasi tufayli chapak chalishni, muzikaga karab uynashni o'rganib oladi, bu esa bolaga zavk bagishlaydi. Bola nerv sistemasining yukmak darajada plastik va uzgaruvchan bo'lishi tufayli uning mexanik xotirasi juda usgan bo'ladi. Bola bir necha marta takrorlagandan keyin so'zlarni bemalol esida tutib oladi. 2 yoshga yetganda butun jummalarni va 2 yoshdan utib 3 yoshga yakinlashganda 4 satr she'rlarni aytib bera oladi. Yasli yoshining oxiriga kelib bola kichik-kichik she'rlarni yod ola boshlaydi. Lekin bolaning mexanik xotirasi juda kuchli degan so'zlardan, ba'zi burjua psixologlari ta'kidlaganlaridek, u fakat mexanik ravishda eslab kolar ekan, degan xulosa chikarmaslik kerak. Bolaning tili chikishi bilan, u so'zlarni ma'nosiga tushunib, boshidan kechgan vokea xodisalarni so'zlab bera olishi unda mantikiy xotiraning tarkib topayotganligidan dalolat beradi. Lekin bolaning uz ma'no xotirasi xali mukammal bulmay uni uzgartirishga tarbiyachilar oldida turgan muxim vazifadir. Yasli yoshi davrida bolaning nutqi nixoyatda tez usadi. Bu davrda nutq katta tarakkiyot yulini bosib utadi. Bolaning

nutqqa ega bo'lishi uning psixik jarayonlarining tarakkiy etishiga ayniksa tafakkurning usishiga juda kuchli ta'sir etadi. Yasli yoshi davrida bolaning nutqining usishini 2 davrga ajratadi. 1. 1 yoshdan I-6 yoshgacha bo'lgan davr. Bu davrda bola 20-30 so'zni biladi, «oyi», «buvi» so'zlari bilan bir katorda bolaning ehtiyojini bildiradigan «ber», «ma» kabi so'zlarni biladi. Bu davrning xarakterli belgisi, bolaning aytayotgan so'zlari mikdori juda kam bo'ladi. Bolaning passiv lugati boyib boradi. Ya'ni uzi gapira olmaydi, boshkalarning so'zini ko'prok eshitadi. Nutq materiallarini uziga zapas kilib singdirib boradi. Bola bu davrda so'zlarni uzik-yulik kilib, imo-ishora bilan aytib beradi. Bu situativ nutq (vaziyat nutqi) deb ataladi. Bola bilan vaziyatda, bir oilada turgan kishigina uning «gaplarini» tushuna oladi xolos, ya'ni bola aytgan so'zidan nimani ifoda etganini tushuna oladi. Bola biladigan so'zlar mikdori turlicha bo'lib asosan bolani urab olgan nutq vaziyatiga boglik. Uzbekistondagi ko'p oilalarda bir necha tilda so'zlashishni aytib utmok kerak. Bu oilalarda turli tillarda bab-baravar so'zlashishi bolaning yana tilini bilib olishiga salbiy ta'sir kursatadi. Bunday paytda bola ona tilini uzok vaqtgacha uygonolmay koladi. Shuning uchun bola atrofida avvalo ona tilining «nutq vaziyati» bo'lishi kerak. Demak bu davrda Tarbiyachining vazifasi bola bilan ko'prok munosabatda bo'lib, uning idrokini nutq materiallari bilan tuldirishdan iboratdir.

6 yoshdan-3 yoshgacha bo'lgan davrdir. Bu davrning eng muxim belgisi bola faol lugatining nixoyatda tez ustirishdir. Bolaning aytadigan so'zlarini mikdori birdaniga oshib ketadi. Bola endilikda kattalarning nutqiga faol taklid kiladi, u tevarak-atrofdagi kishilar nutqidan yangi so'zlarni kiyinchilik bilan uzlashtirgan bo'lsa, endi u uz lugatini boyitib boradi. 2 yoshdan oshganda bolaning so'z boyligi ayniksa tez ortadi. M: 1yoshli bola 10-20 acha so'z zapasiga ega bo'ladi. 1 yoshu 6 oylik 20-30 gacha, 2 yoshli bola 300-350 so'zga; 3 yoshli 900-1000 so'z zapasiga ega bo'ladi. Albatta bu mashg'ulotlar turli bolalarda turlicha bo'ladi. Bolaning kanchalik so'z zapasiga ega bo'lishi, u yashayotgan oiladagi nutq madaniyatiga ko'p jixatdan boglik. Bola 2 yoshdan o'tgandan sun uning nutqi ma'noli bo'la boshlaydi. Ilgari bolaning so'zlari uning ehtiyojini ifodalagan bo'lsa, endi bola nutqida narsalarning uz nomi borligini bilib oladi va xar bir narsani uz

nomi bilan atay boshlaydi. Buni biz bolaning kattalarga murojaat kilib «Bu nima?», «Buning oti nima?» degan savollaridan kurishimiz mumkin. Lekin bola narsalarning nomini bilibgina kolmasdan, narsalar xakida yangi bilimlar olishga intiladi. M: 2 yosh 4 oylik Karim ismli bola o'ziing familiyasi ni bilib olgach, boshka narsalarning «kutichaning», «mashinaning», «stolning» familiyasi nima? Deb suraydi. Bola so'z turkumlari eng avval otni o'rganib oladi. Chunki bola xar kuni xayotida narsalarni nomini uzi nutqida ko'plab ishlatadi. Demak, bola nutqining grammatik tomoni anchagina uzgarib uning nutqida narsalarning nomini bildiradigan otlar ko'prok bo'larkan. Bola yasli yoshining oxirida fe'llarni ko'p ishлата boshlaydi. M: «Kugirchok uxlayapti », «ovkat yeyman», «mashinamni olib ber» va x.k. So'ngra bolaning nutqida ikkinchi darajali bo'laklar paydo bo'ladi. M: ba'zi ravishlar «orkada», «yukorida», «pastga» degan so'zlarni bilib oladi. Sifatlar ko'payadi «chiroyli o'yinchok », «shirin konfet», «oppok kor», «kizil gul» kabilar.

Yasli yoshining oxiriga kelib, nutqning sintaksis tuzilishi ham uzgaradi. Yasli bir so'zdan iborat gap, ya'ni bola uz fikrini bitti so'z bilan ifodalaydi. 2 yoshdan oshgandan sung uning nutqida juda oddiy so'zlar paydo bo'lib, ikki, uchta so'zdan tuzilgan dastlabki gaplar paydo bo'ladi. 3 yoshga yakinlashganda o'zaro boglangan bir necha so'zli gaplar paydo bo'ladi. 2 yoshdan sung bosh gap bilan ergash gapdan tuzilgan dastlabki kushma gaplar ham paydo bo'ladi. Lekin bolaning gaplarida, tuzilishlar, gaplarni to'g'ri tuza olmaslik xollari mavjud bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar bunga e'tibor bkrishlari zarur. Yasli yoshining oxiriga kelib, bola kattalar bilan ko'prok munosabatda bo'la boshlaydi, ular aytib bergan xikoyalarni, kichkina she'rlarni, ashula va ertaklarni jon-jon kilib tinglaydi, uziga berilgan savollarga javob kaytaradi, uzi ham kattalarga savollar beradi. Shu tarika, bolaning nutqi usib tarakkiy etadi. Bolada tafakkurning usishiga nutq ayniksa katta ta'sir kursatadi. Yasli yoshida tafakkur ancha uzgarib, murakkablashadi. Burjua psixologlari gudak tafakkurini maymun tafakkuriga uxshatadilar. Ammo, maymun tafakkuri xakidagi bu nazariya xakikatga kelmaydi.

Bola tugilishi bilanok insondir, u kishilar orasida yashaydi, ular bilan munosabatda bo‘ladi, ularning ta’srida usadi. Bola tafakkuri kattalarnikidan fark kiladi, lekin shu bilan birga bola tafakkuri inson tafakkuridir.

Yasli yoshining boshida bolaning tafakkuri xarakatli tafakkur bo‘ladi. Uning tafakkuri ish xarakatlari bilan bevosita boglangan bo‘ladi. Uning tafakkuri ish xarakatlari bilan bevosita boglangan bo‘ladi. Bola xali tili chikmagan uz fikrini ifodalashga o‘rganmagan bo‘ladi. Shuning uchun uning fikri bevosita xarakatlariga boglangan xolda mavjudbo‘ladi. Bola narsalar bilan uynab, uz xatti-xarakatlarini planlashtirmaydi, xarakatlarining borishiga karab fikr yuritadi. Bola biror narsani yasamokchi yoki chizmokchi bo‘ladi, uning nima ekanligiga fakat uzi tushunadi. Yasli yoshi bolalarining tafakkuri konkret obrazli tafakkurdir. Bola bevosita idrok kilgan, ko‘rgan narsalari ustida fikr yuritadi, shu narsalar urtasidagi eng oddiy boshlanishlarni aniklaydi .

